

# **WEB - SAHIFALAR YARATISH**

**Bajardi: KBI-72 guruh  
talabasi Boqiyev B.**

**Tekshirdi: Ikromov M.**

Mazkur namoyishda quyidagi savollar bilan tanishib o'tamiz:

- Web - ustasi tushunchasi
- Web-serverda joylanadigan axborotning tuzilish sxemasi
- Axborotni HTML formatiga o'tkazish
- Web-sahifalarining FrontPage Express muharriri
- Web yaratuvchilari uchun foydali maslahatlar
- Fayllarni Web - serverga joylash

## **Web - ustasi: Web -sahifasini yaratuvchi tarmoq axborot tugunini boshqaruvchi mutaxassis.**

Web- saytini yaratish va uni muntazam yangilab turish uchun bir yoki ikki Web-ustasi kerak bo‘ladi. Web-ustalari Web- tuguni ishini doimo boshqarib turadilar. Ularning vazifalariga ishoratlarni tekshirish, tugunning kiruvchi yolini kuzatish, sahifa o‘quvchilarining fikrlarini va takliflarini yig‘ib doimiy o‘quvchilar doirasini yaratish, shuningdek serverga texnik xizmat ko‘rsatish va uning muhofazasini ta'minlash kiradi.

Bundan tashqari u brauzerlar va almashinuvchi dastur modullarining yangi rusumlari bilan moslikni ta'minlash uchun tugunni takomillashtiradi hamda dizayn elementlarining yangi variantlarini yaratadi.

# Web - serverda joylanadigan axborotning tuzilishi.

Bu bosqichda Web-tugunda nimani ifodalamoqchililingizni tushunishingiz kerak. Bo'lajak o'quvchilaringizga qanday axborot va qay yo'sinda ko'rsatilishi kerak?

Masalan,

- Tashkilot faoliyatining maqsadlari.
- Bu maqsadlarga erishish uchun qo'llanilayotgan usul va texnologiyalar.
- Qanday ishlar bajarilgan?
- E'lon qilingan ma'lumotlar.
- Ishtirokchilar tarkibi va sh.k.

Shuningdek bu bosqichda axborotning ayrim qismlari ishoratlar orqali yaxlit qilib bog'lanadi.


# Axborotni HTML formatiga o'tkazish.

Web-serverda joylashga mo'ljallangan barcha axborot maxsus HTML (HyperText Markup Language) formatiga o'tkaziladi. Bu format Internet uchun maxsus ishlab chiqilgan. HTML formatiga o'tkazuvchi ko'p sonli vositalar grafik va dasturiy guruhlarga bo'linadilar.

Grafik vositalar bilan ishlaganingizda Siz sahifani to'la moslik maromi (WYSIWYG) da brauzer oynasidagidek aniq aks ettirib ko'rasiz, ya'ni oddiy WinWord muharriridagidek matnni terib, HTML da dasturlashtirasiz. Dastur matni sahifaga bog'langani bilan muallifdan berkitilgan - u dasturlash tilida bevosita ishlamaydi. Bunda muallif kodlarni qo'lda yozishdan ozod bo'lib, ularni generatsiya qilishning kuchli vositasiga ega bo'ladi.

O'z navbatida dasturiy muharrir, qachon lozim topsangiz ekranga sahifaning HTML tilidagi matnni chiqarib beradi va bunda siz HTML tilida bevosita ishlashingiz mumkin.

Web — sahifalari yaratish uchun turli dasturiy vositalar qo'llaniladi. Bular orasida eng soddalaridan biri **FrontPage Express**dir.




FrontPage Express oddiy matn muharrirlariga ancha o'xshash bo'lib, ayrim qo'shimcha imkoniyatlarga ega:

- Sahifaga Fon tasviri va rang beradi.
- Sahifaga WebBot —komponentlari, “dinamik ob'ektlar”, vaqt elementlarini qo'yish mumkin
- Izlash vositalarini Web-sahifaga kiritish imkoniyatini beruvchi komponentlar qo'shilgan.
- ActiveX boshqarish elementlarini ishlatish mumkin.
- Razmetka **HTML** buyrug'ini ishlatib HTMLning teglarini o'rnatish mumkin.
- HTML teglarini bevosita Web-sahifada ko'rish va tuzatish mumkin. Teglarni FrontPage Express dasturida rangli bezash ularni matnda oson topishga imkon beradi.


# Harflar turini o'zgartirish

- Kerakli matn belgilanadi.
- Qurollar paneli qatoridan "Изменение шрифта" nomli tugmacha faollashtiriladi va ekranda yoritilgan shrift turlaridan biri tanlanadi.
- Bu shrift turlaridan bugungi kunda ommaviy bo'lgan (Arial, Times New Roman va Courier) larini tanlagan ma'qul.



# Matnning o'lchamini(katta kichikligini) o'zgartirish

- Kerakli matn belgilab olinadi;
- Quollar panelidan kerakli tugma (*matn o'lchamini kattalashtirish/matn o'lchamini kichiklashtirish Увеличить размер текста/Уменьшить размер текста*)lardan biri tanlab faollashtiriladi.




# Matnning rangini o'zgartirish




- Kerakli matn belgilanadi
- Qurollar panelidan matn rangi "Цвет текста" nomli tugma faollashtiriladi.
- Lozim topilgan ranglardan biri tanlanadi.

# Jadval chizish

- Qurollar panelidan jadval qo'yish " Вставить таблицу " tugmasi faollashtiriladi.
- Kerakli miqdorda ustun va qatorlar tanlanadi.




# Giper ishoratlarni hosil qilish yoki o'zgartirish



- Ishorat berilishi kerak bo'lgan so'z belgilanadi
- Qurollar panelidan ishorat berish yoki o'zgartirish "Создать или изменить ссылку" nomli tugma faollashtiriladi.
- Tarmoqdagi Web sahifa manzili (URL) yoki ma'lum bir hujjat manzili kiritiladi.

# Web sahifaga ma'lum bir ob'ekt ko'rinishini (rasmni) qo'yish




- Quollar panelidan "**Вставить изображение**" nomli tugma faollashtiriladi
- Paydo bo'lgan muloqot tizimidan " **Обзор** " nomli tugmacha faollashtirilib kerakli rasm tanlanadi

# Web sahifaga maxsus elementlarni o'rnatish


" Вставка " menyusi faollashtiriladi

Yoritilgan menyudagi maxsus elementlardan biri (ko'ndalang chiziq, yuguruvchi satr va h.k.) tanlanadi.




# Web sahifaga fonlar yoki rasmdan iborat fonlar berish

- "Формат" menyusi faollashtiriladi
- "Фон" komandasi tanlanadi



## Ekrandagi faol Web sahifani saqlash


- Qurollar panelidan "Сохранить/Как" tugmasi faollashtiriladi
- Faylning nomi va Web sahifa ochilganda ekranning yuqori qismida ko'rinib turuvchi sahifa nomi kiritiladi.



www.arxiv.uz

# Web sahfani HTML formatida ko'rish

"Вид" menyusidan HTML komandasi faollashtiriladi



Просмотр или правка HTML

```
<html>
<head>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=windows-1251">
<meta name="GENERATOR" content="Microsoft FrontPage Express 2.0">
<title>Домашняя страница</title>
</head>

<body>
<h1 align="left">Домашняя страница</h1>
<hr>
<h2><a name="сверху"><font size="5">Содержание</font></a></h2>
<ul>
    <li><a href="#сведения о должности"><strong>Сведения о сотрудниках</strong></a> </li>
    <li><a href="#проекты"><strong>Текущие проекты</strong></a> </li>
    <li><a href="#список лучших узлов"><strong>Список

Исходный  Текущий  Показать цветовую кодировку



OK      Отмена      Справка



Просмотр или правка текущего кода HTML


```

# Web yaratuvchilariga foydali maslahatlar

- Katta tasvirlar yaratishdan qoching. Bunda hajmi 35 KBaytdan yuqori GIF-fayl katta deb hisoblanadi. Har qanday katta tasvir yuklash vaqtini oshirib, o'quvchining g'ashiga tegadi va sizning sahifangiz o'qilish ehtimolini kamaytiradi.
- o'rnatilmagan tasvir bilan aloqani o'rnatishda uning kilobaytlardagi o'Ichamini ko'rsatish foydali. Doimo katta fayllar borligi haqida foydalanuvchini ogohlantiring!
- Minglab va millionlab jiloli rangli tasvirlarni ishlatalish yaramaydi, 256 jiloli rangli tasvirni qo'llash kifoya.
- Har bir sahifada uni yaratuvchining imzosi bo'lishi tartibli hisoblanadi. Sahifada uning elektron pochtasi manzili yoki bosh sahifasi bilan bog'lanish ushun maxsus ishorat bo'lishi mumkin.  
Katta hujjatlarning qisqa tahlilini maxsus "What's New?" ("Qanday yangiliklar?") Web-sahifasiga joylashtirish foydali. Bunday sahifa Sizning hujjatingizni o'rganishda o'quvchi uchun muqaddima bo'lishi kerak.

# Web - serverda fayllarni joylashtirish

Fayllarni Web - tugunda joylashtirish katta e'tiborni talab qiladi. WWW-serverni yaratishda asos bo'lgan UNIX amal tizimi fayllar nomidagi registrga ko'ra o'ta sezgir, shuning uchun fayllar nomini to'g'ri terish muhim. HTML fayllarini Web-serverda joylashtirishni amalga oshirish uchun ma'lumotlarni uzatishning FTP faylli protokoliga asoslangan ko'plab vositalar qo'llanadi. Ayrim HTML muharrirlari fayllarni Web-serverga yetkazishning ichki vositalariga ega. Web-serverda axborotni joylashtirish uchun shuningdek boshqa zarur ishlarni bajarish uchun ma'lum huquqlar zarur. Yozilish huquqini olish uchun Web-server joylashgan kompyuterda ro'yhatdan o'tish va unga axborotni UNIX yozishi uchun parol olish kerak. Bu huquqlar UNIX tizimi ma'muri tarafidan beriladi.